

ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR

VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2024

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF
NAMANGAN STATE UNIVERSITY



journal.namdu.uz



Bosh muharrir:

p.f.d., prof., S.T. Turg'unov

Mas'ul muharrir:

PhD., dots., A.A. Rasulov

Mas'ul muharrir o'rinbosari:

PhD., dots., O.N. Imomov

TAHRIR HAY'ATI

Fizika-matematika fanlari: akad. S. Zaynobiddinov
akad. A. A'zamov
f-m.f.d., prof. B. Samatov
f-m.f.d., dots. R. Xakimov
f-m.f.d., dots. B. Abdulazizov
f-m.f.n., dots. A. Xolboyev
f-m.f.n., dots. R. Jalalov

Biologiya fanlari: akad. K. Tojibayev
akad. R. Sobirov
b.f.d., prof. A. Batashov
b.f.d., prof. N. Abdurahmonov
b.f.d., prof. F. Kushanov
b.f.d., prof. A. Kuchboyev
b.f.d., dots. D. Dexqonov

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A. Umarov
t.f.d., prof. S. Yunusov

Tarix fanlari: akad. A. Asqarov
s.f.d., prof. T. Fayzullayev
s.f.d., prof. N.B. Dexkanov
t.f.d., prof. A. Rasulov

Falsafa fanlari: f.f.d., prof. M. Ismoilov
f.f.d. dots. Z. Isaqova
f.f.d., G. G'affarova
p.f.d., dots. T. Ismoilov
PhD. A. Abdullayev

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. U. Inoyatov
p.f.d., prof. B. Xodjayev
p.f.d., prof. O'. Asqarova
p.f.n., dots. M. Nishonov
p.f.n., dots. A. Sattarov
p.f.n., dots. M. Asqarova
p.f.n., dots. Sh. Xo'jamberdiyeva
p.f.d., dots. S. Abdullayev
PhD., dots. D. Sarimsakova
PhD., B. Urinov

Texnik muharrir: S. Xoshimov

Tahririyat manzili: Boburshox ko'chasi, 161-uy

Kimyo fanlari: akad. S. Nigmatov
k.f.d., prof. Sh. Abdullayev
t.f.d., v.b. prof. G'. Doliyev
k.f.n., dots. T. Sattarov
k.f.n., dots. A. Hurmamatov
PhD., dots. D.S. Xolmatov

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N. Uluqov
fil.f.d., prof. H. Usmanova
PhD. H. Solixo'jayeva
PhD. dots. U. Qo'ziyev
PhD. H. Sarimsoqov
fil.f.d., N. Dosbayeva

Qishloq xo'jaligi fanlari: g.f.d., prof. B. Kamalov
q-x.f.n., dots. A. Qazaqov

Geografiya fanlari: g.f.d., dots. B. Kamalov
g.f.d., prof. A. Nigmatov
g.f.d., dots. A. Nazarov

Iqtisodiyot fanlari: i.f.d., prof. N. Maxmudov
i.f.d., prof. O. Odilov

Tibbiyot fanlari: b.f.d., prof. G'. Abdullayev
tib.f.n., dots. S. Boltaboyev

Psixologiya fanlari: p.f.d., prof. Z. Nishanova
p.f.n., dots. M. Maxsudova

Rasmiy web sahifa:



journal.namdu.uz

Faks: (0369)227-07-61

e-mail: science@namdu.uz

Ushbu jurnal 2019-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамДУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 -raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106-sonli guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458) ga ega. NamDU Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2024-yil 22-iyuldagi 6-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 6). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-7]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Ro'zaliev Bexzodjon Avazjonovich
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Mumtoz sharq filologiyasi fakulteti
o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari
E-mail: behzodjonruzaliev@gmail.com

UO'K:2.001(93)

G'ARB DINIY DUNYOQARASHIDA DINGA BERILGAN TA'RIFLAR TAHLILI

Annotatsiya: Odamzot turli diniy e'tiqodlar va xilma-xil diniy qarashlarga ega holda yashab, faoliyat yuritgan. Insoniyat tarixining turli davrlaridagi ijtimoiy voqea-hodisalar, tuzumlar almashinishi, xilma-xil tamaddunlarning o'ziga xos ta'siri va boshqa sabablar tufayli din atamasining istilohiy ma'nolarining ba'zilar dolzarb ahamiyat kasb etib, butun diqqat va e'tibor o'sha ma'noga qaratilgan. Ammo din murakkab va serqirra hodisa bo'lgani uchun uni ta'riflashda yondashuvlardagi xilma-xillik kuzatiladi. Bugungi kungacha dinni to'liq ifodalovchi ta'rif xususida yakdil fikrga kelinmagan. Bunda tadqiqotchilarning dunyoqarashi muhim ahamiyat kasb etgan. Natijada, turli-tuman ta'riflar paydo bo'lgan.

Kalit so'zlar: din, diyonat, e'tiqod, ishonch, ibodat, Xudo, yaratuvchi, rishta, ilohiy buyruq, birlashtirish, burch, muhabbat, ruh.

Рузалиев Бехзоджон Авазжонович
Международная исламская академия Узбекистана
Факультет классической восточной филологии
заместитель декана по учебной работе

АНАЛИЗ ОПРЕДЕЛЕНИЙ РЕЛИГИИ В ЗАПАДНОМ РЕЛИГИОЗНОМ МИРОВОЗЗРЕНИИ

Аннотация: Человек жил и творил с разными религиозными убеждениями и разными религиозными взглядами. В силу социальных событий разных периодов человеческой истории, смены режимов, уникального влияния разных цивилизаций и других причин, некоторые терминологические значения термина религия приобрели актуальное значение, и все внимание и внимание сосредоточено на этом. сосредоточен на смысле. Но поскольку религия – явление сложное и многогранное, существует многообразие подходов к ее определению. На сегодняшний день нет единого мнения относительно определения религии. Большое значение при этом имеет мировоззрение исследователей. В результате появились различные определения.

Ключевые слова: религия, религия, вера, вера, молитва, Бог, творец, связь, божественный порядок, союз, долг, любовь, дух.

Ruzaliev Bekhzodjon Avazjonovich
International Islamic Academy of Uzbekistan
Faculty of Classical Oriental Philology
deputy dean for academic affairs

ANALYSIS OF THE DEFINITIONS OF RELIGION IN THE WESTERN RELIGIOUS WORLDVIEW

Abstract: Man lived and worked with different religious beliefs and different religious views. Due to the social events of different periods of human history, the change of regimes, the unique influence of different civilizations and other reasons, some of the terminological meanings of the term religion have gained actual importance, and all the attention and attention is on that focused on meaning. But since religion is a complex and multifaceted phenomenon, there is a diversity of approaches to its definition. To date, there is no consensus on the definition of religion. The outlook of the researchers is of great importance in this. As a result, various definitions have appeared.

Key words: religion, religion, belief, faith, prayer, God, creator, bond, divine order, union, duty, love, spirit.

Kirish

Globalashuv sharoitida diniy dunyoqarash transformatsiyasi jamiyat muhitini barqarorlashtirishning muhim omili sifatida dolzarblik kasb etmoqda. Diniy-ma'rifiy sohadagi faoliyat samaradorligini oshirish boy ilmiy-tarixiy merosimizni o'rganish va targ'ib qilish, shu bilan birga, dunyoda ro'y berayotgan voqea-hodisalar va ijtimoiy-siyosiy vaziyatning tahlilini taqozo etmoqda. Ma'rifatparvarlik, mehr-muruvvat, bunyodkorlik, bag'rikenglik kabi ezgu fazilatlar va milliy qadriyatlarimizni keng targ'ib qilish, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda diniy-ma'rifiy sohani chuqur tadqiq etish ahamiyatini oshiradi. Buning uchun din atamasining istilohiy ma'nolarini batafsil o'rganish va tahlil etish orqali muammoga asosli yechimlar berish hamda to'g'ri xulosa chiqarish imkoniyatini paydo bo'ladi. Zero, har bir mutaxassis o'zining ixtisosligidan va dunyoqarashidan kelib chiqib "din" tushunchasini bayon qilib tushuntirib berishga harakat qilgan. G'arb dunyosidagi sohaga oid adabiyotlarda keltirilgan mulohazalar, olimlarning fikrlarini o'rganish orqali "din" tushunchasini ta'riflashga jiddu-jahd ko'rsatishganligi bilib olishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlil

G'arb diniy dunyoqarashida dinga berilgan ta'riflarni o'rganish uchun quyidagi olimlar va ularning asarlarida keltirilgan fikr va mulohazalari tahlili amalga oshirildi: Mark Tulliy Sitseronning "Qonunlar haqida" kitobi, Immanuel Kantning "Din aql hududida" kitobi, Fridrix Daniel Ernst Shleyermaxerning "Diyonat haqida maqolalar" kitobi, Ferdinand Fransua Shatelning "Insoniylik qonuni" kitobi, Robert Spenser Karrning "Asosiy prinsiplar" kitobi, Eduard Bernett Taylorning "Ibtidoiy madaniyat" kitobi, Fridrix Maks Myullerning "Dinning paydo bo'lishi va rivojlanishi" kitobi, Emil-Lui Byurnufning "Diyonatlar ilmi" kitobi, Albert Revilning "Dinlar tarixi muqaddimasi" kitobi, Jan Mari Gyuyoning "Kelajak dinsizligi" kitobi, Mishel Mayerning "Axloqiy va diniy ta'limotlar" kitobi, Salomon Reynaxning "Dinlarning umumiy tarixi" kitobi, David Emil Dyurkgeym o'zining "Diniy hayotning boshlang'ich shakllari" kitobi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada Garbda va umuman ilm-fan sohalarida tan olingan olimlarning ta'riflari va yondoshuvlari hamda xulosalari tahlili amalga oshirildi. Ularga munosabat bildirildi.

Tahlillar va natijalar

G'arb dunyosida dinga berilgan ta'riflar bilan tanishib chiqishni Sitseron bilan boshlaymiz. Mark Tulliy Sitseron o'zining "Qonunlar haqida" kitobida, "Din – bu insonni Xudo bilan birlashtiruvchi rishtadir"[1], deb ta'rif bergan. Ushbu ta'rif xristianlikdagi qizil vino Xristosning qoni va non esa uning go'shti, ya'ni kimda-kim qizil vino ichib va non esa Xristos bilan birlashib ketishi aqidasi bayon qilmoqda. Sitseronni miloddan oldin

yashaganini inobatga olsak, xristianlik ta'rifni aqida qilib olganligi ma'lum bo'ladi.

Immanuel Kant o'zining "Din aql hududida" kitobida, "Din sub'ektiv jihatdan bizning barcha burchlarimizni ilohiy buyruq sifatida bilishdir"[2][3], deb ta'riflagan. Xudo aqidasi bo'lgan har bir dinda hayotdagi insonning burch va majburiyatlari ilohiy buyruq o'laroq qabul qilinishi tabiiy. Chunki, din o'z ishonuvchilari tomonidan amal qilishlari shart bo'lgan faoliyatlarni ilohiy buyruq orqali ta'minlaydi. Masalan, yahudiylikdagi o'nta buyruq, xristianlikdagi cho'qintirish, islomdagi besh rukn kabilar.

Fridrix Daniel Ernst Shleyermaxer o'zining "Diyonat haqida maqolalar" kitobida, "Din bir vaqtning o'zida siz uchun fikrlash, e'tiqod, dunyoni tafakkur qilishning o'ziga xos usuli va bu dunyoda biz bilan uchrashadigan narsalarni birlashtirishdir; o'ziga xos xulq-atvor va xarakter"[4][5], deb ta'riflagan. Ya'ni, din prizmasi orqali dunyoni mushohada qilish. Masalan, dunyo hayotida insonga turli balo-musibatlariga duch keladi. Agar biror bir dinga ishonuvchi bo'lsa, bu ilohiy sinov ekanligini o'ylaydi va sabr qilsa keyingi hayotda unga yaxshiliklar berilishiga umid qiladi. Agar hech bir dinga ishonmasa biror-bir katta baloga duch kelsa, chiqish yo'li o'zini o'ldirish deb hukm qiladi. Bunga Koreyadagi ateistlarning hayoti ibratli. Chunki, dunyoda faqat qiynalib mehnat qilish bo'lsa, undan ko'ra o'zimni o'ldirib bunday hayotdan qo'rtulay deb o'zini-o'zi o'ldirish tarqalgan.

Ferdinand Fransua Shatel o'zining "Insoniylik qonuni" kitobida, tushunish kerak bo'lgan va Xudo uni hammaga namoyon qilgan "din – bu mavjudotning Yaratuvchi oldidagi, insonning Xudo oldidagi, insonning jamiyat oldidagi va insonning o'zi oldidagi burchlarining yig'indisidir"[6][7], deb ta'riflagan. Avvalo, inson Xudo borligiga ishonadi va e'tiqod darajasiga olib chiqadi. Keyin, ushbu aqidani quvvatlab turish uchun o'ziga xos ba'zi bir amallarni bajaradi. Bu o'z navbatida jamiyatda ma'lum bir qoidalarga asosanib hayot kechirishni talab qiladi. Oxir-oqibat inson yuqoridagilarni qay darajada muvaffaqiyatli bajarayotganligiga qarab o'zini-o'zi sarhisob qiladi. Biror-bir dinga e'tiqod qiliuvchi shunday yo'l tutishi tabiiy.

Robert Spenser Karr o'zining "Asosiy prinsiplar" kitobining xotimasida, "Biz ko'rdikki, vaqt va makon chegaralarini tasavvur qilib bo'lmaydigan kuchga ishonish dinning asosiy elementi bo'lib, u duch kelishi mumkin bo'lgan barcha shakl o'zgarishlaridan omon qoladigan elementdir"[8], deb ta'riflagan. Ushbu ta'rifda, Xudoning sifatini ta'riflamoqda. Masalan, islom dinida Alloh deganda insonni aqli va o'y-fikriga biror narsa kelsa yoki biror narsani tasavvur qilsa, Alloh aqlim va o'y-fikrimga kelgan narsadan boshqa Zot deb e'tiqod qilishga buyurilgan.

Eduard Bernett Taylor o'zining "Ibtidoiy madaniyat" kitobida, "Dinning minimal ta'rif sifatida, ruhiy mavjudotlarga ishonishni da'vo qilish"[9][10], deb

ta'kidlagan. Ya'ni, ko'zga ko'rinmaydigan va qo'l bilan ushlab bo'lmaydigan yaratilganlar borligiga ishonish nazarda tutilgan. Masalan, islom dinida jinlar va farishtalarga imon keltirishga buyurilgan.

Fridrix Maks Myuller o'zining "Dinning paydo bo'lishi va rivojlanishi" kitobida, batafsil aytadigan bo'lsam, "din – bu ong qobiliyati bo'lib, his-tuyg'ular va aqlga qaramasdan, odamga turli xil nomlar va o'zgaruvchan niqoblar ostida cheksizni mustaqil ravishda tushunishga imkon beradi. Bu qobiliyatsiz hech qanday din, hatto butlarga va fetishlarga eng oddiy sig'inish ham mumkin bo'lmaydi. Agar siz quloq solsangiz, har qanday dinda ruhning nolasini, "tushunib bo'lmaydigan narsani tushunishga intilish" shovqinini eshitishingiz mumkin. Ifodalab bo'lmaydigan, cheksiz intilish, Xudoga bo'lgan muhabbatni ifodalash mumkin"[11], deb ta'kidlagan. Inson ishonish va e'tiqod qilishga moyil qilib yaratilgan. Tananing ozuqasi oziq-ovqat bo'lsa, inson ruhining ozuqasi ishonch-e'tiqoddur. Xatto ateist ham e'tiqod qiladi. U hech qanday Xudo yo'q deb ishonadi va buni isbotlashga urinadi. Bu inkorni isbotlash uchun o'zicha turli-tuman safsatalarga sig'inadi. O'zini cheksiz kulfatlar girdobiga tashlaydi. O'zini-o'zi zombilashtarishgacha borib yetadi. Ichkilikbozlik, narkomaniya, buzuqchiliklar bunga yaqqol misol bo'ladi. Buning eng oson yechimi ruhning nolasiga quloq solib Allohni buyuk yaratuvchi va qudratli tarbiyalovchi o'laroq tan olishdir.

Emil-Lui Byurnuf o'zining "Diyonatlar ilmi" kitobida, "Din – ibodatdir va ibodat ham aqliy ish bo'lib, u orqali inson oliy kuchni tan oladi va u o'z ezguligiga murojaat qiladi"[12][13], deb ta'riflagan. Tabiatda bo'layotgan o'zgarishlarni kuzatib, ularni barchasiga buyuk kuch-qudratga ega Zot bunga qodir, deb fikr yuritish ham ibodat hisoblanadi. Masalan, bir danak ichiga butun bir daraxtni joylab qo'yishi. Bahor kelishi bilan oddiy cho'pdan yashil barglarni chiqarishi, keyin alvon ranglardagi hamda xushbo'y va yoqimli hidlar taratuvchi gullarni gullatib qo'yishi. Kuz kelganda shu gullar turli-tuman mevalarga aylanishi. Agar biz o'sha oddiy cho'pni olib ichini yorib ko'rsak, ichida na bir barg va na bir gul va na bir meva topa olmaymiz. Demak, yakkayu yagona bo'lgan yaratuvchi Zot Alloh ularni bizlar uchun yaratib qo'ymoqda. Dunyoda hayot sabablar ustiga qurilgan. Bo'lmasa, Alloh hech bir narsasiz ham mevani yaratib qo'yishga qodirdir.

Albert Revil o'zining "Dinlar tarixi muqaddimasi" kitobida, "Din – bu dunyo va o'zi ustidan hukmronligini tan oladigan va u bilan birlashish tuyg'usi yoqimli bo'lgan (taskin beradigan) sirli ruh bilan inson ruhini birlashtiruvchi bog'lanish hissi orqali inson hayotini belgilash"[14], deb ta'kidlagan. Ayrim dinlarda aqida darajasiga chiqarilgan, ilohiy kuch bilan birlashib ketish ishonch-e'tiqodi bunga yaqqol misol bo'ladi.

Jan Mari Gyuyo o'zining "Kelajak dinsizligi" kitobida, "Xulosa qilib aytganda, biz yana bir bor asosiy

fikrimizni tasdiqlaganini ko'ramiz: din hamma narsaning jismoniy, metafizik va axloqiy izohi sifatida o'ylab topilgan sotsiologiyadir; bu barcha tabiiy va hatto g'ayritabiiy kuchlarning inson tipiga va ularning ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan munosabatlariga qisqarishidir"[15], deb ta'kidlagan. Din bu o'ylab topilgan ijtimoiy hodisa sifatida ta'riflanmoqda. Aslida, dinning strukturasi bo'lmish ishonch-e'tiqod, ibodat, muomalot va axloqni ta'riflashga uringan.

Mishel Mayer o'zining "Axloqiy va diniy ta'limotlar" kitobida, "Din – bu Xudoga, qo'shnimizga yoki o'zimizga bo'lgan xatti-harakatlarimizda bizni boshqaradigan e'tiqod va ko'rsatmalar to'plami. Din nomi ba'zan Xudo bizga bo'lgan sevgimiz uchun bergan qonunga, ba'zan esa Xudoga bo'lgan muhabbatimiz tufayli bu qonunga bo'ysunishimizga taalluqlidir. Bundan kelib chiqadiki, din bizni Xudoga va o'xshashlarimizga bog'laydigan va o'z qadr-qimmatimizga g'amxo'rlik qiladigan sevgi, hurmat va adolat tuyg'usidir"[16], deb ta'riflagan. Yuqorida aytganimizdek, dinning strukturasi ta'riflashga uringan.

Salomon Reynax o'zining "Dinlarning umumiy tarixi" kitobida, "Din – bu bizning harakatlarimizning mutlaq erkinligi uchun to'siq bo'lib turgan qaytaruvlar to'plami"[17][18], deb ta'kidlagan. Bu yerda, dinning qaytariqlari va to'siqlari haqida so'z yuritilmoqda. Masalan, yahudiylikdagi o'ldirma, o'g'irlik qilma, xristianlikdagi buzuqchilik qilma, islom dinidagi zinoga yaqinlashma kabi ta'qiqlar haqida so'z yuritilmoqda.

David Emil Dyurkgeym o'zining "Diniy hayotning boshlang'ich shakllari" kitobida, "Din – bu alohida taqiqlangan, muqaddas narsalar bilan bog'liq bo'lgan o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlovchi e'tiqod va amaliyotlar tizimidir. Bu e'tiqod va amaliyotlar o'z ergashuvchi muxlislarini serkov deb nomlangan ma'naviy birlikka birlashtiradi"[19], deb ta'kidlagan. Bu yerda xristianlik dini strukturasi ta'rif berilgan.

Din – inson imkoniyatlaridan beqiyos darajada ustun bo'lgan oliy qudratga ishonch va unga sig'inib ibodat qilishga, shak-shubhasiz ravishda muqaddas kitoblar, predmet-narsalar, naql-rivoyatlar mo'tabarligini tan olishga, har bir individ o'zining unga absolyut holda bog'liqligini va uning lutf-karami, yordamiga sazovor bo'lish umidida ekanligini e'tirof etishga asoslangan bilish formasi[20][21], ekanligi ta'kidlanadi. Insonning o'zligini tan olishi va ilohiy kuch-qudratga sig'inishi jihatidan dinga ta'riflashga urinish mavjud.

Din ikki ma'noda ishlatiladi: Birinchisi – yahudiylik, xristianlik va hinduiylik haqida so'z yuritilganda, yahudiy, xristian va hinduiyning ishonchini belgilovchi avloddan-avlodga o'tib kelayotgan og'zaki an'analar yoki diniy kitoblar to'plamini tashkil qiluvchi ta'limotlar majmuasi nazarda tutiladi; Ikkinchisi – odamni hayvondan ajratuvchi narsa din bo'ladi deyilganda, qandaydir aniq dinni nazarda tutmay, balki, aql qobiliyati yoki rag'batini his-tuyg'u va idrokdan mustaqil ravishda, ba'zan ularga xilof

o'laroq insonga cheksizlikni har xil nomlar va turli-tuman formalarda anglash imkoniyatini berish[22][23], tushuniladi. Bu yondoshuv o'ta tor va dogmatik ruhiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Chunki, dunyoda yahudiylik, xristianlik va hinduiylikdan tashqari boshqa dinlar ham mavjud ekani barchaga ma'lum haqiqat. Lekin kitobda bu tan olinmasdan ko'z yumib o'tilmoqda. Shuningdek, din inson aql qobiliyati orqali qo'lga kiritgan anglash imkoniyati, sifatida xulosa berilgan. Insonga nima yaxshi yoki yomonligini aql orqali bilib olish mumkin emas. Masalan, islom shariatida ayol kishi hayz kelgan kunlarida namozini ham ado qilmaydi va Ramazon ro'zasini ham tutmaydi. Hayzdan poklangandan keyin namozini qazosini ado qilmaydi, ammo Ramazon ro'zasini qazosini tutib beradi. Agar aql jihatidan olsak namoz ro'zaga nisbatan ulug' ibodat hisoblanadi. Shuning uchun, ro'zadan ko'ra namozni qazosini ado qilish muhimroq hisoblanadi. Demak, din nimani yaxshi degan bo'lsa,

o'shani yaxshi va nimani yomon degan bo'lsa, o'shani yomon deb tan olish kerak.

Xulosa

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Garbdagi olimlar o'zlarining ixtisosligiga va dunyoqarashdan kelib chiqib ta'rif berishgan. Odamzot turli diniy e'tiqodlar va xilma-xil diniy qarashlarga ega holda yashab, faoliyat yuritgan. Insoniyat tarixining turli davrlaridagi ijtimoiy voqea-hodisalar, tuzumlar almashinishi, xilma-xil tamaddunlarning o'ziga xos ta'siri va boshqa sabablar tufayli din atamasining istilohiy ma'nolarining ba'zilari dolzarb ahamiyat kasb etib, butun diqqat va e'tibor o'sha ma'noga qaratilgan. Ammo din murakkab va serqirra hodisa bo'lgani uchun uni ta'riflashda yondashuvlardagi xilma-xillik kuzatiladi. Bugungi kungacha dinni to'liq ifodalovchi ta'rif xususida yakdil fikrga kelinmagan. Bunda tadqiqotchilarning dunyoqarashi muhim ahamiyat kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Ciceron M.T. De Legibus. – Cambridge: J.Hall and Son; – London: Simpkin, Marshall and Co.; Hamilton, Adams and Co., 1881. –P. 34-35.
- 2.Kant E. La Religion Dans Les Limites De La Raison. – Paris: Librairie De Ladrage, 1841. –P. 271.
- 3.Theorie De Kant Sur La Religion Dans Les Limites De La Raison. – Paris: Joubert Libraire; – Lion: Ch.Savy Jeune Libraire-Editeur, 1842. –P. 69.
- 4.Schleiermacher F.D.E. Über die Religion: Reden an die Gebildeten unter ihren Verächtern. – Leipzig: F.A.Brodhaus, 1868. –P. 26-27.
- 5.Schleiermacher F.D.E. On Religion: Speeches to its Cultured Despisers. – London: Kegan Paul Trench Trübner and Co. Ltd., 1893. –P. 27.
- 6.L'Abbe Chatel. Le Code De L'Humanite. – Paris: Chez L'Auteur, 1838. –P. 98.
- 7.L'Abbe Chatel. Le Code De L'Humanite. – Paris: Chez L'Auteur, 1838. –P. 98.
- 8.Herbert Spencer. Les Premiers Principes. – Paris: Felix Alcan Editeur, 1907. –P. 493.
- 9.Edward B.Taylor. La Civilisation Primitive. – Paris: C.Reinwald Et Cie Libraires-Editeurs, 1876. –P. 491.
10. Edward B.Taylor. Primitive Culture: Researches into the Development of Mythology, Philosophy, Religion, Art and Custom. – London: Bradbury Evans and Co. Printers Whitefriars, 1871. –P. 383.
11. Max Muller F. Origine Et Developpement De La Religion. – Paris: C.Reinwald Et Cie Libraires-Editeurs, 1879. –P. 20-21.
12. Emile Burnouf. La Science Des Religions. – Paris: Maisonneuve Et Cie Libraires-Editeurs, 1772. –P. 204.
13. Emile Burnouf. La Science Des Religions. – Paris: Maisonneuve Et Cie Libraires-Editeurs, 1876. –P. 191.
14. Reville A. Prolegomenes De L'Histoire Des Religions. – Paris: Librairie Fischbacher, 1886. –P. 34.
15. Guyau M. L'Irreligion De L'Avenir Etude Sociologique. – Paris: Felix Algan Edituer Ancienne Librairie Germer Bailliere Et Cie, 1906. –P. 84.
16. Michel Mayer. Tsidkath Elohim Ou Instructions Morales Et Religieuses. – Paris: A.Durlacher Libraire, Blum Libraire, 1885. –P. 1-2.
17. Salomon Reinach. Orpheus: Histoire Generale Des Religions. – Paris: Publications Alcide Picard, 1921. –P. 4.
18. Salomon Reinach. Orpheus: a History of Religions. Translated by Florence Simmonds. – London: Peter Owen Limited, 1930. –P. 3.
19. Emile Durkheim. Les Formes Elementaires De La Vie Religieuse. – Paris: Quadriga / PUF, 1990. –P. 65.
20. Дидье Жюлиа. Философский словарь: Пер. с франц. – Москва: Междунар. отношения, 2000. –С. 378-381.
21. Вашкевич Н.Н. Словарь этимологических и сокращенных значений. Вып. 4. – Москва: Издатель С.Ландышев 7518, 2010. –С. 401-402.
22. Классики мирового религиоведения. Антология. Т. 1 / Пер. с англ., нем., фр. Сост. и общ. ред. А.Н.Красникова. – Москва: Канон+, 1996. –С. 41-42.

23. Гуревич П.С. Современный гуманитарный словарь справочник. –Москва: Олимп; ООО “Фирма “Изд-во АСТ”, 1999. –С. 354-355.